FV.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

NURALIYEVA NAVBAHOR SHAYMARDON QIZI

BUTUN VA KASR TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN KO‘PNUQTALI VA CHIZIQSIZ NOLOKAL MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025 yil

UDK: 517.927 517.95

Fizika – matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико – математическим наукам

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

NURALIYEVA NAVBAHOR SHAYMARDON QIZI

BUTUN VA KASR TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN KO‘PNUQTALI VA CHIZIQSIZ NOLOKAL MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.2.PhD/FM1288 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Yaxshiboyev Maxmadiyor Umirovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 18 » noyabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (211-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 29 » oktyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil « 29 » oktyabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A.Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. So‘nggi o‘n yil davomida kasr tartibli differensial tenglamalar sohasi butun dunyo matematiklari orasida katta qiziqish uyg‘otdi. Hozirgi vaqtda kasr tartibli xususiy hosilali tenglamalar fizik, biologik va kimyoviy jarayonlarning keng doirasini aniq va ishonchli modellashtirishda tadqiqotchilar uchun muhim vositaga aylanmoqda. Shu munosabat bilan ko‘plab olimlar kasr tartibli differensial tenglamalarni yechishning yangi usullarini ishlab chiqish va ularning yechimlari xossalarini o‘rganish bilan faol shug‘ullanmoqdalar. So‘nggi yillarda bunday tenglamalarni klassik Koshi yoki chegaraviy shartlardan farqli turli xil nolokal shartlar ostida o‘rganish differensial tenglamalar sohasida muhim burilish nuqtasiga aylandi. Bu yo‘nalish, odatda nolokal masalalar deb atalib, tajribali tadqiqotchilar hamda yosh olimlar orasida tobora ortib borayotgan qiziqishni uyg‘otmoqda. Ushbu dissertatsiya subdiffuziya, diffuziya, kasr tartibli to‘lqin tarqalishi tenglamalari va ikkinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalarning yechimlarini turli xil parametrga bog‘liq chiziqli va nochiziqli nolokal shartlar ostida o‘rganishga bag‘ishlangan. Bunday masalalarni tadqiq etish bugungi kunda nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Chiziqli va nochiziqli nolokal shartlarga parametrlarning kiritilishi klassik boshlang‘ich va chegaraviy masalalarni o‘z ichiga oluvchi umumiy sxemani taqdim etadi hamda natijalarning qo‘llanish doirasini kengaytiradi. Xususan, subdiffuziya va diffuziya tenglamalari g‘ovak muhitlarda zarrachalar transportini, biologik to‘qimalarda moddalar diffuziyasini, polimerlar ichida moddalarning tarqalishini tavsiflashda qo‘llaniladi. Kasr tartibli to‘lqin tenglamalari esa yurak to‘qimalarida elektr signallarining tarqalishini, bioelektrik impulslarni, materiallardagi tebranishlarni hamda zo‘riqishlarning taqsimlanishini modellashtirishda keng qo‘llaniladi.

Parametrik shakldagi nolokal shartlarning kiritilishi muammoning moslashuvchanligini oshiradi va xotiraga ega tizimlarni, uzoq masofali o‘zaro ta’sirlarni yoki gibrid chegaraviy xatti-harakatlarni modellashtirish imkonini beradi. Natijada, qo‘llanish sohasi sezilarli darajada kengayadi. Bunga quyidagilar kiradi (ammo ular bilan cheklanmaydi): Fizika: anomaliyali diffuziya, g‘ovak muhitlarda issiqlik va massa almashinuvi;Tibbiyot va biofizika: hujayralar ichida moddalar transporti, yurak va asab tizimlarida signal uzatilishi; Muhandislik: elastik tuzilmalarni tebranishi va deformatsiyasi; Axborot texnologiyalari: tarmoqlashtirilgan tizimlarda signal tarqalishi; Iqtisodiyot va moliya: xotiraga asoslangan dinamik tizimlar va kechikkan ta’sirli bozor modellari. Ushbu dissertatsiyada ko‘rib chiqilgan masalalar va olingan natijalar turli sohalarda yuzaga keladigan murakkab jarayonlarni tahlil qilish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Mamlakatimizda matematika, fizika, biologiya va geologiya kabi aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, mexanika, elektronika, boshqaruv tizimlari, fiziologiya va biologik jarayonlardagi turli hodisalarni chuqur anglashda muhim o‘rin tutgani uchun kasr va xususiy hosilali tenglamalar nazariyasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu muhim sohalarda xalqaro miqyosda tadqiqotlar olib borish fundamental ilmiy izlanishlarning asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan. Hozirgi vaqtda kasr va xususiy hosilali tenglamalar nazariyasi bo‘yicha erishilayotgan yutuqlar mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz olimlari ushbu sohalarga salmoqli hissa qo‘shib, farmon va qarorlarning amalda ro‘yobga chiqarilishiga sezilarli darajada yordam bermoqdalar. Xususan, differensial tenglamalar va matematik fizika sohalaridagi ilmiy izlanishlarning, ayniqsa xalqaro darajadagi tadqiqotlarning fundamental fanlarni rivojlantirishda ustuvor yo‘nalish sifatida qadrlanayotganini mamnuniyat bilan qayd etish lozim.

Mazkur dissertatsiya ishining predmeti va tadqiqot ob’yekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi"[1] haqidagi farmonlarida belgilangan vazifalariga mos keladi, 2017 yil 17-fevraldagi PQ-2789 "Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Prezident qarori, 2018 yil 27 apreldagi "Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3682-sonli qarori va 2019 yil 9 iyuldagi "Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4387 sonli Prezident qarori hamda 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4708 sonli Prezident qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kasr tartibli xususiy hosilali tenglamalar va ular bilan bog‘liq nolokal masalalar zamonaviy matematikada faol tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Kasr tartibli differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar turli mualliflar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu sohada Sh.O. Alimov, R.R. Ashurov, S.R. Umarov, M. Yamamoto, Z. Li, A.V. Pskhu, M. Kirane, M. Ruzhanskiy, D.K. Durdiev, Yu.E. Fayziyev, Z.A. Sobirov, E.T. Karimov, B.X. Turmetov, Y. Zhang, H.T. Nguen, A.S. Malik va boshqa olimlar tomonidan muhim ilmiy natijalar olingan.

Ko‘plab tadqiqotchilar chiziqli va nochiziqli nolokal shartlarning turli ko‘rinishlari ostida differensial tenglamalarning yechimlarini topish masalasini

[1] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to’g’risida » gi №292-sonli qarori

o‘rganib kelmoqda. O‘zgaruvchi parametrlarning qo‘llanilishi bunday masalalarni bir vaqtning o‘zida tadqiq etishda samarali bo‘lib, nafaqat bitta masalani, balki shu turdagi masalalarning butun bir sinfini tahlil qilish imkonini beradi. A.N. Kochubei, K. Diethelm, J. Liu, M. Yamamoto, K. Sakamoto, G. Florida, Z. Li, S.A. Alimov, R.R. Ashurov, Yu.E. Fayziyev, A. Boutiara, K. Guerbati, M. Benbachir, F. Jarad, A. Abdeljawad, A. Yacine, B. Nouredine, A. Salim, M. Benchohra va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida diffuziya va subdiffuziya tenglamalari uchun nuqtali va integral nolokal shartlarga ega turli masalalar o‘rganilgan. Xususan, A. Boutiara, S. Krim va boshqalarning ishlarida oddiy differensial tenglamalar uchun uch parametrli nuqtali va integral nolokal masalalar tadqiq etilgan.

Mazkur dissertatsiya ishida ushbu masalalarni xususiy hosilali differensial tenglamalarga kengaytiralgan. M.O. Mamchuev klassik boshlang‘ich-chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi subdiffuziya tenglamasining yechimini Grin funksiyasi usuli yordamida qurdi. Ushbu yondashuv asosida yangi nochiziqli nolokal shartli subdiffuziya tenglamasi ko‘rib chiqilgan. R.R. Ashurov va Yu.E. Fayziyev vaqt bo‘yicha kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun (Riemann–Liouville va Caputo hosilalari bilan) bitta parametrli nolokal masalani tadqiq etdilar. Ular parametr bo‘yicha muammo to‘g‘ri qo‘yilganligini ta’minlovchi ortogonal shartlarni topdilar hamda ushbu shartlar bajarilmaganda ham yechimning mavjud bo‘lishini ko‘rsatdilar. D.K. Durdiev va A.A. Raxmonov vaqt bo‘yicha kasr hosilali to‘lqin tenglamasi uchun ikki parametrli nolokal masalani o‘rgandilar. R.R. Ashurov va D.K. Durdiev ishlarida ilgari surilgan g‘oyalarni rivojlantirib, vaqt bo‘yicha kasr hosilali to‘lqin tenglamasi uchun to‘rt parametrli yangi nolokal masalani kiritilgan. Ikkinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun parametrli ko‘p nuqtali nolokal masalalar A.O. Ashiraliev, P.E. Sobolevskiy, A. Hanaliev, E. Karimov, M. Mamchuev, E. Uzturk, D.G. Orlovskiy, S.I. Piskarev va K.B. Sabitovlarning ishlarida tadqiq etilgan. Bundan tashqari, ikkinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun parametrli ko‘p nuqtali nolokal masalalarni o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining F-FA-2021-424-sonli ilmiy tadqiqot grantining rejalashtirilgan mavzusiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi subdiffuziya, diffuziya, kasr tartibli to‘lqin tenglamalari va ikkinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalarda uchraydigan parametrli chiziqli va nochiziqli nolokal masalalarning turli ko‘rinishlari uchun klassik yechimlarning mavjud va yagonaligini isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uch parametrli chiziqli nolokal masalalar hamda subdiffuziya tenglamasi uchun nochiziqli nolokal masalalarning yagona yechimga ega ekanligini isbotlash;

kasr tartibli to‘lqin tarqalish tenglamalari uchun ikki va to‘rt parametrli nolokal masalalarning yagona yechimga ega ekanligini isbotlash;

ikkinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun ko‘p nuqtali nolokal masalalarning yagona yechimga ega ekanligini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti. Klassik diffuziya tenglamasi, Kaputo kasr tartibli subdiffuziya tenglamasi, Kaputo kasr tartibli to‘lqin tarqalish tenglamasi va ikkinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar.

Tadqiqotning predmeti. Parametrlarni o‘z ichiga olgan chiziqli va nochiziqli nolokal shartlar ostida subdiffuziya, diffuziya, kasr tartibli to‘lqin tarqalish tenglamalari hamda ikkinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalarning yechimlarini topish masalalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda funksional analiz usullari, spektral nazariya va Furye usullari qo‘llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uchta parametrli chiziqli nolokal masalalar va subdiffuziya tenglamasi uchun chiziqsiz nolokal masalalarning klassik ma’noda yagona yechimliligi isbotlangan;

kasr tartibli to‘lqin tarqalishi tenglamalari uchun ikki va to‘rt parametrli nolokal masalalarning klassik ma’noda yagona yechimga ega ekanligi isbotlangan;

xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun ko‘pnuqtali nolokal masalalarning klassik ma’noda yagona yechimliligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Ushbu dissertatsiyada olingan natijalar va qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlari magistrantlari va doktorantlari uchun bitiruv kursi sifatida o‘qitilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar funksional analiz, spektral nazariya va Furye usuli yordamida olingan. Olingan barcha natijalar matematik jihatdan to‘g‘ri.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, parametrlarni o‘z ichiga olgan chiziqli va nochiziqli nolokal shartlar ostida turli differensial tenglamalar uchun yechimlarning mavjudligi va yagonaligi isbotlandi. Ushbu natijalar kasr tartibli differensial tenglamalar nazariyasini kengaytiradi hamda mavjud ilmiy yutuqlarning umumlashtirilgan shaklini beradi. Olingan natijalar fizika, biologiya va muhandislikdagi real jarayonlarni modellashtirishda qo‘llanishi mumkin. Xususan, ular anomal diffuziya, to‘qimalarda moddalar taqsimlanishi va elastik muhitlardagi tebranish jarayonlariga mos matematik modellarni qurishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishlarning joriy qilinishi. Butun va kasr tartibli differensial tenglamalar uchun ko‘pnuqtali va chiziqsiz nolokal masalalar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

subdiffuziya, diffuziya tenglamalarning yechimlarini turli xil parametrlarga bog‘liq chiziqli va nochiziqli nolokal shartlar ostida topilgan yechimlaridan 22-11-00064 raqamli “Geosferadagi dinamik jarayonlarni irsiyatni hisobga olgan holda modellashtirish” mavzusidagi xorijiy loyihada subdiffuziya tenglamalari uchun nolokal masalalarni tasniflashda foydalanilgan (Kosmofizika tadqiqotlari va radioto‘lqinlar tarqalish institutining 2025-yil 8-sentyabrdagi № 346-sonli ma’lumotnoma, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijani qo‘llanilishi hujayra ichida dori moddalarining sekin diffuziyalanishini modellashtirib, optimal dozalash rejimini aniqlash imkonini bergan;

kasr tartibli to‘lqin tarqalishi tenglamalari hamda xususiy hosilali differensial tenglamalarning turli parametrga bog‘liq chiziqli va nochiziqli nolokal shartlar ostida yechimlaridan 122041800013-4 raqamli “Umumlashgan kasr tartibli differensial operatorli tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o‘rganish, ularni fizik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda qo‘llash” mavzusidagi xorijiy loyihada turli fizik va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda qo‘llanilgan (Kabardin-Balkar ilmiy markazi Amaliy matematika va avtomatlashtirish institutining 2025-yil 16-apreldagi №01-13/48-sonli ma’lumotnoma, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi turli fizikaviy va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda samarali qo‘llanilayotgan kasr va butun tartibli hosila qatnashgan evolyutsion tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarni yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Asosiy ilmiy natijalar 4 ta xalqaro, 2 ta milliy ilmiy konferensiya va 1 ta xalqaro kongressda muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shundan, 8 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, shulardan 1 tasi xorijiy va 7 tasi respublika jurnallarida chop etilgan bo‘lib, ulardan 3 tasi SCOPUS ma’lumotlar bazalarida indekslangan va 7 tasi tezisdir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 128 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va uni tanlash zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Mavzu bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqotlar tahlil qilinib, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti aniq bayon qilingan. Ishning ilmiy yangiligi va olingan amaliy natijalari, shuningdek, ularning nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, mavzu bo‘yicha nashr etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dastlabki ma’lumotlar”** nomli birinchi bobi yordamchi xarakterga ega bo‘lib, asosan ishning keyingi boblarini o‘qish va tushunishni qulaylashtirish maqsadida tuzilgan. Ushbu bobda yangi ilmiy natijalar keltirilmagan, balki faqat tadqiqot uchun zarur bo‘lgan ta’riflar va oldindan ma’lum tasdiqlar jamlangan. Birinchi bobdan ba’zi zarur ma’lumotlarni keltiramiz:

Hilbert fazosida abstrakt operator. $(\cdot,\cdot)$ skalyar ko‘paytma va norma $\|\cdot\|$ aniqlangan H separabel Hilbert fazosi bo‘lsin. Aytaylik, $A: H \to H$ operator H fazoda aniqlangan bo‘lib, o‘z-o‘ziga qo‘shma, quyidan chegaralangan, musbat aniqlangan bo‘lsin. Faraz qilaylik, A operator kompakt A^{-1} teskari operatorga ega. U holda u to‘la ortonormal $\{v_k\}$ xos vektorlar sistemasiga va ularga mos $\{\lambda_k\}$ musbat xos sonlar to‘plamiga ega bo‘ladi, ya’ni v_k vektorlar va λ_k sonlar $Av_k = \lambda_k v_k$ tenglikni qanoatlantiradi. Xos sonlarni qayta nomerlash yordamida ularni kamaymaydigan qilib nomerlab olamiz, ya’ni $0 < \lambda_1 \le \lambda_2 \cdots \to +\infty$.

Keling, H Hilbert fazosida A operatorning darajasi tushunchasini eslatib o‘taylik. τ ixtiyoriy haqiqiy son bo‘lsin. Biz H da A operatorning darajasini quyidagicha kiritamiz:

$$A^\tau h = \sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^\tau h_k v_k,$$

bu yerda $h_k = (h, v_k)$ lar $h \in H$ elementning Furye koeffitsiyentlari. Shubhasiz, ushbu operatorning aniqlanish sohasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$D(A^\tau) = \{h \in H : \sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^{2\tau} |h_k|^2 < \infty\}.$$

Bundan tashqari biz uchun muhim ikki tushunchani ta’riflaymiz:
Ikki parametrli Mittag-Leffler funktsiyasi

$$E_{\rho,\mu}(z) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{z^k}{\Gamma(\rho k + \mu)}, \quad z, \mu \in \mathrm{C}, \quad \rho > 0,$$

hamda Kaputo kasr hosilasi

$$D_t^\rho h(t) = \frac{1}{\Gamma(n-\rho)} \int_0^t \frac{h^{(n)}(\xi)}{(t-\xi)^{\rho+1-n}} d\xi, \quad t > 0, \quad n = [\rho] + 1.$$

Oxirgi formulada tenglikning o‘ng tomoni mavjud bo‘lsin deb faraz qilamiz.

Dissertatsiyaning asosiy natijalari ikkinchi bobdan boshlanadi. Ushbu bob **“Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun chiziqli va chiziqsiz nolokal masalalar”** deb nomlanadi.

Ushbu bobning **birinchi bo‘limida** H Gilbert fazosida elliptik qismi A abstrak operator bo‘lgan Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun uchta parametr qatnashgan nuqtaviy nolokal masala o‘rganildi.

Aytaylik, H Gilbert fazosi va $AC[0,T]$ to‘plam $[0,T]$ da aniqlangan absolyut uzluksiz funksiyalar to‘plami bo‘lsin. Biz $AC([0,T];H)$ orqali $[0,T]$ da absolyut uzluksiz va qiymatlari H dan bo‘lgan funksiyalar fazosini belgilaymiz. $C([0,T];H)$ fazo ham xuddi shunday aniqlanadi.

1-masala. Aytaylik, $\rho \in (0,1)$ bo‘lsin. Quyidagi boshlang‘ich-chegaraviy masalani qaraylik:

$$\begin{cases} D_t^\rho u(t) + Au(t) = f(t), \quad 0 < \rho \le 1, \quad 0 < t < T; \\ \alpha u(0) + \beta u(T) = \gamma u(\xi) + \varphi, \quad 0 < \xi < T, \end{cases} \tag{1}$$

bu yerda $f(t) \in C((0,T);H)$ berilgan funksiya, $\varphi \in H$ berilgan element, α, β, γ lar haqiqiy o‘zgarmaslar, $\xi \in (0,T)$ fiksirlangan nuqta. Bu masalaning

$u(t)\in AC([0,T];H)$, $D_t^\rho u(t), Au(t)\in C((0,T);H)$ shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini toping.

1-teorema. *Biror* $\varepsilon\in(0,1)$ *soni uchun quyidagi shartlardan biri bajarilsin:*

(N1) $f(t)\in C([0,T];D(A^\varepsilon))$, $\varphi\in H$ *va* $\alpha>0,\quad \beta\ge 0,\quad \gamma\le 0$ *(yoki* $\alpha<0,\quad \beta\le 0,\quad \gamma\ge 0$*);*

(N2) $f(t)\in C([0,T];D(A^{\varepsilon+1}))$, $\varphi\in D(A)$, $\alpha=0$ *va* $\beta\gamma\le 0$, *yoki bir vaqtning o'zida* $\beta\gamma>0$ *va* $|\beta|\le|\gamma|$ *shartlar o'rinli.*

U holda (1) masalaning yechimi mavjud, yagona va quyidagi ko'rinishga ega:

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}\left[\frac{\varphi_k-\beta v_k(T)+\gamma v_k(\xi)}{\Delta_k}E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho)+v_k(t)\right]V_k,$$

$$\Delta_k=\alpha+\beta E_{\rho,1}(-\lambda_k T^\rho)-\gamma E_{\rho,1}(-\lambda_k\xi^\rho),\ v_k(t)=\int_0^t\eta^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k\eta^\rho)f_k(t-\eta)d\eta.$$

Shu bilan birga, shunday $C_\varepsilon, C>0$ *sonlar mavjudki quyidagi koersitiv tengsizliklar bajariladi:*

(N1) hol:

$$\|D_t^\rho u(t)\|^2+\|u(t)\|_1^2\le t^{-2\rho}(C_\varepsilon\max_{t\in[0,T]}\|f\|_\varepsilon^2+C\|\varphi\|^2);$$

(N2) hol:

$$\|D_t^\rho u(t)\|^2+\|u(t)\|_1^2\le t^{-2\rho}(C_\varepsilon\max_{t\in[0,T]}\|f\|_{\varepsilon+1}^2+C\|\varphi\|_1^2).$$

2-teorema. *Biror* $\varepsilon\in(0,1)$ *soni uchun quyidagi shartlardan biri bajarilsin:*

(L1) $f(t)\in C([0,T];D(A^\varepsilon))$ $\varphi\in H$ $\alpha\ne 0$, *parametrlar 1-teoremaning (N1) shartini qanoatlantirmaydi ;*

(L2) $f(t)\in C([0,T];D(A^{\varepsilon+2}))$ $\varphi\in D(A^2)$, $\alpha=0$, $\beta\gamma>0$, $|\beta|\ge|\gamma|$ *va* β,γ,T,ξ *lar uchun* $\frac{\beta}{\gamma}=\left(\frac{T}{\xi}\right)^\rho$ *shart o'rinli;*

(L3) $f(t)\in C([0,T];D(A^{\varepsilon+1}))$ $\varphi\in D(A)$, $\alpha=0$, $\beta\gamma>0$, $|\beta|\ge|\gamma|$ *va* $\beta,\gamma,T,$ ξ *lar uchun* $\frac{\beta}{\gamma}\ne\left(\frac{T}{\xi}\right)^\rho$ shart *shart o'rinli.*

U holda (1) masala yechimining mavjudligi uchun quyidagi ortogonallik shartlari bajarilishi zarur va yetarlidir:

$$\begin{cases}(\varphi,V_k)=0,\ k\in K_0;\\ (f(t),V_k)=0,\ t\ge 0,\quad k\in K_0,\end{cases}$$

bu yerda

$$K_0:=K_0(\Omega\subset R^3)=\{k:\Delta_k(\alpha,\beta,\gamma)=0,\quad k\in\mathrm{N},\quad (\alpha,\beta,\gamma)\in\Omega\}.$$

Bu holda (1) masalaning yechimi yagona emas va ixtiyoriy a_k, $k\in K_0$

koeffitsientlar bilan quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$u(t)=\sum_{k\in K_0} a_k E_{\rho,1}(-\lambda_k t^{\rho})V_k+\sum_{k\notin K_0}\left[\frac{\varphi_k-\beta v_k(T)+\gamma v_k(\xi)}{\Delta_k}E_{\rho,1}(-\lambda_k t^{\rho})+v_k(t)\right]V_k.$$

Ushbu bobning **ikkinchi bo‘limida** (1) masalaga o‘xshash bo‘lgan quyidagi integral shartli nolokal masala ko’rib chiqiladi:

2-masala. Quyidagi

$$\begin{cases} D_t^{\rho}u(t)+Au(t)=f(t), \quad 0<\rho<1, \quad 0<t<T, \\ \alpha u(0)+\beta u(T)+\gamma\int_0^T u(\eta)d\eta=\varphi, \end{cases} \tag{2}$$

$u(t)\in AC([0,T];H)$, $D_t^{\rho}u(t), Au(t)\in C((0,T);H)$ shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini toping.

Bu bo‘limda, (2) masala uchun ham xuddi yuqoridagi 1- va 2-teoremalar kabi teoremalar isbotlangan. Ammo (1) va (2) masalalarda foydalanilgan nolokal shartlar bir biridan ancha farq qiladi. Bu farqni quyidagi rasm orqali osonroq tushunib olish mumkin:



$\alpha u(0)+\beta u(T)=\gamma u(\xi)+\varphi$ $\qquad$ $\alpha u(0)+\beta u(T)+\gamma\int_0^T u(\eta)\,d\eta=\varphi$

Ushbu bobning **uchinchi bo‘limida** $C([0,1]\times[0,T])$ fazoda Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun quyidagi nochiziqli nolokal masala qaralgan:

3-masala. Kasr subdiffuziya tenglamasining $(0,1)\times(0,T]$ sohada

$$D_{0t}^{\alpha}u(x,t)-u_{xx}(x,t)=f(x,t), \tag{3}$$

quyidagi chiziqsiz nolokal shart hamda

$$u(x,0)=g(x,u(x,T)), \quad x\in[0,1], \tag{4}$$

Dirixle chegara shartlarini

$$u(0,t)=u(1,t)=0, \quad t\in[0,T], \tag{5}$$

qanoatlantiruvchi yechimini toping. Bu yerda $f(x,t)$, $g(x,w)$lar berilgan funksiyalar.

3-teorema. *Aytaylik* $f(x,t)\in C([0,1]\times[0,T])$ *hamda* $g(x,w)\in C\big([0,1]\times \mathrm{R}\big)($

funksiya ikkinchi argumenti bo‘yicha quyidagi Lipshits shartini qanoatlantirsin:

$$|g(x,w)| \le L|w|, \quad 0 < L < \frac{1}{\sqrt{E_\alpha(T^\alpha)}}.$$

U holda (3)–(5) masalaning yechimi uchun quyidagi Apirior tengsizlik obajariladi:

$$\|u(\cdot,t)\|^2 \le \left[\frac{L^2 E_{\alpha,\alpha}(T^\alpha)}{1-L^2 E_\alpha(T^\alpha)} E_\alpha(t^\alpha) + E_{\alpha,\alpha}(t^\alpha)\right] \frac{T}{\alpha} \max_{[0,T]} \|f(\cdot,t)\|,$$

bu yerda $\|u(\cdot,t)\|^2 = \int_0^1 u^2(x,t)dx$ *va* $E_\alpha(\cdot), E_{\alpha,\tau}(\cdot)$ *Mittag–Leffler funsiyalari.*

Qo‘yilgan masala chiziqsiz bo‘lgani sababli uning yechimini biroz noodatiy usulda topamiz. (3)–(5) masalaning formal yechimini Grin funksiyasi yordamida quyidagicha ifodalaymiz:

$$u(x,t) = \int_0^1 g(\xi, v(\xi)) D_{0t}^{\alpha-1} G(x,t,\xi,0)d\xi + \int_0^t\int_0^1 G(x,t,\xi,\tau) f(\xi,\tau)d\xi d\tau.$$

Bu yerda $v(\cdot)$ quyidagi integral tenglamani yechimi bo‘lib,

$$v(x) = \int_0^1 D_{0T}^{\alpha-1} G(x,T,\xi,0) g(\xi, v(\xi))d\xi + F(x),$$

integral ichidagi Grin funksiyasi uchun quyidagi tengsizlik bajariladi:

$$|G(x,t,\xi,\tau)| \le C|t-\tau|^{\frac{\alpha}{2}-1}, \quad 0 \le \tau < t \le T. \qquad (6)$$

4-teorema *Faraz qilaylik quyidagi shartlar bajarilsin:*

1. $f(x,t) \in C([0,1]\times[0,T])$*;*

2. $g(\xi,v) \in C([0,1]\times \mathbb{R})$ *funksiya ikkinchi argumenti bo‘yicha quyidagi Lipshits shartini qanoatlantiradi:*

$$|g(\xi,v_1) - g(\xi,v_2)| \le L|v_1 - v_2|, \quad \textit{barcha} \quad \xi \in [0,1], v_1, v_2 \in \mathbb{R} \; \textit{lar uchun};$$

3. $L < \dfrac{\Gamma\left(1-\frac{\alpha}{2}\right)}{C\Gamma\left(\frac{\alpha}{2}\right)T^{1-\frac{\alpha}{2}}}$, *bu yerda* C *soni (6) bahodagi maxsus konstanta.*

U holda (3)–(5) masalaning yechimi mavjud va yagona.

Uchinchi bob **“Kaputo kasr tartibli to‘lqin tenglamasi uchun bir nechta parametrga ega nolokal masalalar”** deb nomlanadi.

Ushbu bobning birinchi bo‘limida H separabel Hilbert fazosida elliptik qismi abstrakt operator bo‘lgan holda Kaputo kasr hosilali to‘lqin tenglamasining ikki parametrga bog‘liq nolokal shartni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasi o’rganilgan.

4-masala. Aytaylik, $\rho \in (1,2)$ bo‘lsin. Quyidagi nolokal masalani qaraylik

$$\begin{cases} D_t^\rho u(t) + Au(t) = f, & 0 < t \le T; \\ \alpha u(0) + \beta u(\xi) = \varphi, & 0 < \xi \le T; \\ u'(0) = \psi, \end{cases} \tag{7}$$

bu yerda $f(t) \in C([0,T];H)$, φ, ψ esa H Hilbert fazosida berilgan ma'lum elementlar va ξ esa $(0,T]$ da ixtiyoriy fiksirlangan nuqta. Bu masalaning $u(t) \in AC([0,T];H)$, $D_t^\rho u(t), Au(t) \in C((0,T);H)$ shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini toping.

5-teorema. *Aytaylik, $f, \varphi, \psi \in D(A)$, α va β parametrlar quyidagi shartni qanoatlantirsin:*

$$|\alpha| > |\beta|.$$

U holda (7) masalaning yagona yechimi mavjuda va quyidagi ko'rinishga ega:

$$u(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\frac{1}{\Delta_k} (\varphi_k - \beta v_k(\xi) - \beta \xi E_{\rho,2}(-\lambda_k \xi^\rho) \psi_k) E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho) + \psi_k t E_{\rho,2}(-\lambda_k t^\rho) \right] V_k,$$

$$+ \sum_{k=1}^{\infty} f_k t^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k t^\rho) V_k,$$

bu yerda $\Delta_k = \alpha + \beta E_{\rho,1}(-\lambda_k \xi^\rho).$

Shuningdek, shunday $C > 0$ son mavjudki, quyidagi koersitiv tengsizlik o'rinli:

$$\| D_t^\rho u(t) \|^2 + \| u(t) \|_1^2 \le C(\| f \|^2 + \| \varphi \|^2 + \| \psi \|^2), \quad t > 0.$$

Ushbu bobning ikkinchi bo'limida (7) masalani qamrab oladigan, jarayonning dastlabki va keying vaqtlardagi holatlarini bog'lovchi to'rtta parametr qatnashgan umumiy ko'rinishdagi murakkab nolokal masala to'la o'rganilgan.

5-masala. Quyidagi nolokal masalani qaraylik

$$\begin{cases} D_t^\rho u(t) + Au(t) = f, & 0 < t \le T; \\ \alpha_1 u(0) + \alpha_2 u(\xi) = \varphi, & 0 < \xi \le T; \\ \beta_1 u'(0) + \beta_2 u'(\xi) = \psi, \end{cases} \tag{8}$$

bu yerda, $\alpha_1, \alpha_2, \beta_1, \beta_2$ $(\alpha_1^2 + \alpha_2^2 \ne 0, \beta_1^2 + \beta_2^2 \ne 0)$ sonlar haqiqiy parametrlar. Bu masalaning $u(t) \in AC([0,T];H)$, $D_t^\rho u(t), Au(t) \in C((0,T);H)$ shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini toping.

(8) masala haqida asosiy natijalarni keltirishdan oldin Mittag-Leffler funksiyasining muhim bir xossasini eslatib o'tamiz.

Tasdiq. *Agar $\rho \in (1,2)$ bo'lsa, u holda shunday $c_1 > 0$ son mavjudki, quyidagi tengsizlik bajariladi:*

$$|E_{\rho,\mu}(-t)| \le \frac{c_1}{1+t}. \tag{9}$$

6-teorema. *Aytaylik $f, \varphi, \psi \in H$, $\alpha_1 \beta_1 \ne 0$ va (9) baxodagi $c_1 > 0$ soni uchun* *quyidagi shartlardan biri bajarilsin:*

(a) $\dfrac{\alpha_2\beta_2}{\alpha_1\beta_1}\geq 0,\quad 1>c_1^2\dfrac{\alpha_2\beta_2}{\alpha_1\beta_1}+c_1\left|\dfrac{\alpha_2}{\alpha_1}+\dfrac{\beta_2}{\beta_1}\right|;$

(b) $\dfrac{\alpha_2\beta_2}{\alpha_1\beta_1}<0,\quad 1<-c_1^2\dfrac{\alpha_2\beta_2}{\alpha_1\beta_1}+c_1\left|\dfrac{\alpha_2}{\alpha_1}-\dfrac{\beta_2}{\beta_1}\right|.$

U holda (8) masalaning yagona yechimi mavjuda va quyidagi ko‘rinishga ega:

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}\Bigg[\frac{\varphi_k-(\alpha_1 v_k(0)+\alpha_2 v_k(\xi))}{\Delta_k}\Big((\beta_1+\beta_2E_{\rho,1}(-\lambda_k\xi^\rho))E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho)$$

$$+\beta_2\lambda_k\xi^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k\xi^\rho)tE_{\rho,2}(-\lambda_k t^\rho)\Big)$$

$$+\frac{\psi_k-(\beta_1 v_k'(0)+\beta_2 v_k'(\xi))}{\Delta_k}\Big(-\alpha_2\xi E_{\rho,2}(-\lambda_k\xi^\rho)E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho)$$

$$+(\alpha_1+\alpha_2E_{\rho,1}(-\lambda_k\xi^\rho))tE_{\rho,2}(-\lambda_k t^\rho)\Big)+v_k(t)\Bigg]V_k, \tag{10}$$

bu yerda

$$v_k(t)=f_k t^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k t^\rho)v_k.$$

$$\Delta_k=\alpha_1\beta_1+(\alpha_1\beta_2+\alpha_2\beta_1)E_{\rho,1}(-\lambda_k\xi^\rho)+\alpha_2\beta_2(E_{\rho,1}(-\lambda_k\xi^\rho))^2$$

$$+\alpha_2\beta_2\lambda_k\xi^\rho E_{\rho,2}(-\lambda_k\xi^\rho)E_{\rho,\rho}(-\lambda_k\xi^\rho).$$

Shuningdek, shunday $C>0$ son mavjudki, quyidagi koersitiv tengsizlik o‘rinli:

$$\|D_t^\rho u(t)\|^2+\|u(t)\|_1^2\leq C(\|f\|^2+\|\varphi\|^2+\|\psi\|^2),\quad t>0. \tag{11}$$

Quyidagi to’plamni aniqlab olaylik:

$$K_0=\{k\in \mathrm{N}:\Delta_k=0\}.$$

7-teorema. *Aytaylik $\alpha_1,\alpha_2,\beta_1,\beta_2$ parametrlar va f,φ,ψ elementlar uchun quyidagi shartlardan biri bajarilsin:*

(1) *$f,\varphi,\psi\in H$ va (9) tengsizlikdagi $c_1>0$ soni uchun quyidagi tengsizliklar bajarilmaydi:*

(1a) $\dfrac{\alpha_2\beta_2}{\alpha_1\beta_1}\geq 0,\quad 1>c_1^2\dfrac{\alpha_2\beta_2}{\alpha_1\beta_1}+c_1\left|\dfrac{\alpha_2}{\alpha_1}+\dfrac{\beta_2}{\beta_1}\right|;$

(1b) $\dfrac{\alpha_2\beta_2}{\alpha_1\beta_1}<0,\quad 1<-c_1^2\dfrac{\alpha_2\beta_2}{\alpha_1\beta_1}+c_1\left|\dfrac{\alpha_2}{\alpha_1}-\dfrac{\beta_2}{\beta_1}\right|;$

(2) *$f,\varphi,\psi\in D(A)$ hamda quyidagi shartlardan biri bajariladi:*

(2a) $\alpha_1\beta_1=0,\quad |\alpha_1|+|\beta_1|\neq 0,\quad \alpha_2\beta_2\neq 0,$

(2b) $\alpha_1\beta_1=0,\quad \alpha_2\beta_2=0,\quad |\alpha_1\beta_2|+|\alpha_2\beta_1|\neq 0;$

(3) *$f,\varphi,\psi \in D(A^2)$ va quyidagi shart bajariladi:*

(3) $|\alpha_1|+|\beta_1|=0, \quad \alpha_2\beta_2 \neq 0.$

Agar K_0 to‘plam bo‘sh bo‘lsa, u holda (8) masala (11) formula bilan berilgan yagona yechimga ega.

Bundan tashqari, C o‘zgarmas son mavjud bo'lib, biz har bir holat uchun mos keladigan quyidagi koersitiv tengsizliklarni ham olamiz:

(1) *hol uchun (11) tengsizlik;*

(2) *hol uchun*

$$\| D_t^\rho u(t)\|^2 + \|u(t)\|_1^2 \le C(\|f\|_1^2 + \|\varphi\|_1^2 + \|\psi\|_1^2), \quad t>0;$$

(3) *hol uchun*

$$\| D_t^\rho u(t)\|^2 + \|u(t)\|_1^2 \le C(\|f\|_2^2 + \|\varphi\|_2^2 + \|\psi\|_2^2), \quad t>0.$$

Agar K_0 to'plam bo'sh bo'lmasa, u holda (8) masala yechimining mavjudligi uchun quyidagi ortogonallik shartlari bajarilishi zarur va yetarlidir:

$$\begin{cases} (\varphi,V_k)=0, \quad (\psi,V_k)=0, \quad k\in K_0, \\ (f,V_k)=0, \quad k\in K_0. \end{cases}$$

Bu holda (1) masalaning yechimi yagona emas va ixtiyoriy b_k, $k\in K_0$ koeffitsientlar bilan quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$u(t)=\sum_{k\in K_0} b_k\left[-\frac{\alpha_2\xi E_{\rho,2}(-\lambda_k\xi^\rho)}{\alpha_1+\alpha_2 E_{\rho,1}(-\lambda_k\xi^\rho)}E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho)+tE_{\rho,2}(-\lambda_k t^\rho)\right]V_k$$

$$+\sum_{k\notin K_0}\left[\frac{\varphi_k-(\alpha_1 v_k(0)+\alpha_2 v_k(\xi))}{\Delta_k}\Big((\beta_1+\beta_2 E_{\rho,1}(-\lambda_k\xi^\rho))E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho)\right.$$

$$+\beta_2\lambda_k\xi^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k\xi^\rho)tE_{\rho,2}(-\lambda_k t^\rho)\Big)$$

$$+\frac{\psi_k-(\beta_1 v_k'(0)+\beta_2 v_k'(\xi))}{\Delta_k}\Big(-\alpha_2\xi E_{\rho,2}(-\lambda_k\xi^\rho)E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho)+$$

$$\left.(\alpha_1+\alpha_2 E_{\rho,1}(-\lambda_k\xi^\rho))tE_{\rho,2}(-\lambda_k t^\rho)\Big)\right]V_k+\sum_{k=1}^{\infty}v_k(t)V_k.$$

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun ko‘pnuqtali nolokal masalalar”** deb nomlanadi.

Ushbu bobning birinchi bo‘limida giperbolik tipga tegishli bo‘lgan tenglama uchun haqiqiy qiymatli ikkita parameter qatnashgan nolokal masala o‘rganildi.

6-masala. Aytaylik, $\Omega=(0,\pi)\times(0,T]$ sohada quyidagi nolokal masala berilgan bo‘lsin:

$$\begin{cases} u_{tt} - u_{xx} = f(x,t), \quad 0 < x < 1, \quad 0 < t \le T; \\ u(0,t) = u(1,t) = 0, \quad 0 \le t \le T; \\ u(x,\xi) = \alpha u(x,0) + \varphi(x), \quad 0 < \xi \le T; \\ u_t(x,\xi) = \beta u_t(x,0) + \psi(x), \end{cases} \tag{12}$$

bu yerda $\varphi(x), \psi(x) \in C[0,1]$, $f(x,t) \in C([0,1]\times[0,T])$, va α, β lar haqiqiy sonlar. Bu masalaning $u(x,t) \in C([0,1]\times(0,T])$, $u_{tt}, u_{xx} \in C([0,1]\times(0,T])$ shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini toping.

8-teorema. *Aytaylik, $f(x,t)$ funksiya $\Omega = (0,\pi)\times(0,T]$ da uzluksiz, x o'zgaruvchisi bo'yicha ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi va $f(0,t) = f(1,t) = 0$ shart barcha $t \in [0,T]$ da bajarilsin, hamda $\varphi(x) \in C^3[0,1]$, $\psi(x) \in C^2[0,1]$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:*

$$\varphi(0) = \varphi(1) = 0, \quad \varphi''(0) = \varphi''(1) = 0, \quad \psi(0) = \psi(1) = 0.$$

Agar α, β parametrlar $\left|\dfrac{1+\alpha\beta}{\alpha+\beta}\right| > 1$ shartni qanoatlantirsa, *u holda, (1) masala yagona yechimga ega bo'ladi va bu yechim quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:*

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty}\left[T_k(t) + (\varphi_k - T_k(\xi))\frac{(\cos\pi k(\xi - t) - \beta\cos\pi kt)}{1+\alpha\beta-(\alpha+\beta)\cos\pi k\xi}\right.$$

$$\left. -(\psi_k - T_k'(\xi))\frac{1}{\pi k}\frac{(\sin\pi k(\xi - t) + \alpha\sin\pi kt)}{1+\alpha\beta-(\alpha+\beta)\cos\pi k\xi}\right]\sin\pi kx,$$

bu yerda $T_k(t) = \dfrac{1}{\pi k}\int_0^t f_k(\eta)\sin\pi k(t-\eta)d\eta.$

Ushbu bobning ikkinchi bo'limida H separabel Hilbert fazosida elliptik qismi $-A$ abstrakt operator bo'lgan ikkinchi tartibli differensial tenglamaning cheksiz sohada m parametrga bog'liq ko'pnuqtali nolokal shartni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasi o'rganilgan.

7-masala. Aytaylik, A^{-1} kompakt operator bo'lsin. nolokal masala berilgan bo'lsin:

$$\begin{cases} u_{tt}(t) - Au(t) = F(t), \quad t > 0; \\ u(0) = \sum_{j=1}^{m}\alpha_j u(\xi_j) + \varphi; \\ \|u(t)\| \ \textit{chegaralangan}, \ \textit{agar} \ t \to \infty \ \textit{bo'lsa}, \end{cases} \tag{13}$$

bu yerda $F(t) \in C([0,\infty), H)$ berilgan, $\varphi \in H$ berilgan element, $\alpha_j, j = 1,2,..m;$ lar haqiqiy o'zgarmaslar, $\xi_j, j = 1,2,..m$ lar $(0,\infty)$ yarim o'qdagi $0 < \xi_1 < \xi_2 < \cdots < \xi_m$. fiksirlangan nuqtalar. Bu masalaning $u(t) \in C([0,\infty); H)$, $u_{tt}(t), Au(t) \in C((0,\infty); H)$ shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini toping.

$C([0,\infty), H)$ sifatida $[0,\infty)$ da uzluksiz va qiymatlari H fazoda yotuvchi funksiyalar fazosini tushuniladi.

9-teorema. *Aytaylik* $\varphi \in H$, $F(t) \in C([0,\infty), D(A^{\frac{1}{4}}))$ *va quyidagi shart bajarilsin:*

$$\int_0^\infty \| F(t) \|_{\frac{1}{4}}^2 \, dt < \infty.$$

Bundan tashqari parametrlar va fiksirlangan nuqtalar quyidagi shartlardan birini qanoatlantirsin:

a) $\sum_{j=1}^{m} |\alpha_j| e^{-\sqrt{\lambda_1}\xi_j} < 1,$

b) $\alpha_j \le 0, j = 1,2,\dots,m.$

U holda (13) masalaning yechimi mavjud, yagona va quyidagi ko'rinishga ega:

$$u(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\frac{\varphi_k + \sum_{j=1}^{m} \alpha_j v_k(\xi_j)}{1 - \sum_{j=1}^{m} \alpha_j e^{-\sqrt{\lambda_k}\xi_j}} e^{-\sqrt{\lambda_k}t} + v_k(t) \right] V_k. \quad (14)$$

Bu yerda

$$v_k(t) = -\frac{1}{\sqrt{\lambda_k}} \left[e^{-\sqrt{\lambda_k}t} \int_0^t \sinh(\sqrt{\lambda_k}\eta) F_k(\eta) d\eta + \sinh(\sqrt{\lambda_k}t) \int_t^\infty e^{-\sqrt{\lambda_k}\eta} F_k(\eta) d\eta \right],$$

φ_k, $F_k(\eta)$ *lar* φ, $F(\eta)$ larning mos Furye koeffitsiyentlari.

Shuningdek, shunday $C > 0$ *son mavjudki, quyidagi koersitiv tengsizlik o'rinli:*

$$\| u_{tt}(t) \|^2 + \| u(t) \|_1^2 \le C \left[\| F(t) \|^2 + \int_0^\infty \| F(t) \|_{\frac{1}{4}}^2 \, dt + t^{-4} \left(\int_0^\infty \| F(t) \|^2 \, dt + \| \varphi \|^2 \right) \right], \quad t > 0.$$

Quyidagi to'plamni aniqlab olaylik:

$$K_0 = \{ k : k \in \mathrm{N}, \quad 1 - \sum_{j=1}^{m} \alpha_j e^{-\sqrt{\lambda_k}\xi_j} = 0 \}.$$

10-teorema. *Aytaylik* $\varphi \in H$, $F(t) \in C([0,\infty), D(A^{\frac{1}{4}}))$ *va* $\int_0^\infty \| F(t) \|_{\frac{1}{4}}^2 \, dt < \infty$ *bo'lsin. U holda*

agar K_0 *to'plam bo'sh bo'lsa, () masala yagona yechimga ega va bu yechim (14) formula bilan aniqlanadi;*

agar K_0 *to'plam elementlarga ega bo'lsa, (8) masala yechimining mavjudligi uchun quyidagi ortogonallik shartlari bajarilishi zarur va yetarlidir:*

$$(\varphi, V_k) = 0, (F(t), V_k) = 0, k \in K_0, t > 0.$$

Bu holda (1) masalaning yechimi yagona emas va ixtiyoriy a_k, $k \in K_0$ *koeffitsientlar bilan quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:*

$$u(t)=\sum_{k\in K_0}a_k e^{-\sqrt{\lambda_k}t}V_k+\sum_{k\notin K_0}\frac{\varphi+\sum_{j=1}^{m}\alpha_j v(\xi_j)}{1-\sum_{j=1}^{m}\alpha_j e^{-\sqrt{\lambda_k}\xi_j}}e^{-\sqrt{\lambda_k}t}V_k+\sum_{k=1}^{\infty}v_k(t)V_k.$$

XULOSA

Mazkur dissertatsiya subdiffuziya, diffuziya, kasr tartibli to‘lqin tenglamalari hamda ikkinchi tartibli tenglamalar uchun parametrli nolokal masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu masalalarni yechishning asosiy usuli klassik Furye usulidir.

Dissertatsiyaning har bir bobidagi mazmun va asosiy natijalar quyidagicha umumlashtiriladi:

1. Hilbert fazosida Kaputo kasr hosilasiga ega subdiffuziya tenglamasi uchun parametrlar uchligi bilan bog‘liq ikki xil chiziqli nolokal shartlar ostida yechim topish masalasi o‘rganildi va ushbu shartlar $L_2[0,1]$ fazosidagi $u(x,0)=g(x,u(x,T)),\quad x\in[0,1],$ nochiziqli nolokal shart bilan almashtirilib, Banachning qisuvchi operatorlar prinsipi yordamida yechimning mavjudligi va yagonaligi isbotlanadi. Olingan natijalar subdiffuziya tenglamalari nazariyasini rivojlantiradi hamda qisman diffuziya tenglamalari nazariyasini umumlashtiradi.

2. Kaputo kasr tartibli to‘lqin tenglamalari uchun ikki va to‘rt parametrli nolokal masalalar parametrlarning barcha haqiqiy qiymatlari uchun to‘liq o‘rganildi. Parametrlar muayyan shartlarni qanoatlantirganda yechim mavjud va yagona bo‘lishi ko‘rsatildi. Ushbu shartlar buzilganda esa qo‘shimcha ortogonallik shartlari ostida masala yechimga ega bo‘lishi mumkin, biroq yagonalik saqlanmasligi aniqlangan.

3. Klassik to‘lqin tenglamasi uchun vaqt bo‘yicha nolokal masalalar tadqiq qilindi. Bundan tashqari, chegaralanmagan sohada $u_{tt}(t)-Au(t)=F(t),\ t>0$ tenglama uchun Bitsadze–Samarskiy masalasi qaralgan. Bu yerda qo‘yilgan $u(0)=\sum_{j=1}^{m}\alpha_j u(\xi_j)+\varphi,$ nolokal shart noma’lum funksiyaning soha chegarasidagi qiymatini uning ichki nuqtalardagi diskret qiymatlari bilan bog‘laydi.

Dissertatsiyada keltirilgan barcha masalalar uchun yechimlarning yagonaligini ta’minlovchi mezonlar aniqlangan. Bundan tashqari, masalalarning korrekt bo‘lishi uchun yetarli shartlar keltirilgan va koersitiv tengsizliklar isbotlangan.

Ko‘rib chiqilgan barcha nolokal masalalarning umumiy jihati, nolokal shartlarda parametrlarning ishtiroki bo‘lib, bu mavjud natijalarni umumlashtirish va kengaytirish imkonini berdi. Shuningdek, turli tipdagi tenglamalar uchun nolokal masalalarning o‘rganilgani natijasida keng qamrovli va yangicha ilmiy xulosalar olindi.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 AT V.I. ROMANOVSKIY INSTITUTE OF MATHEMATICS

INSTITUTE OF MATHEMATICS

NURALIEVA NAVBAKHOR SHAYMARDON QIZI

MULTIPOINT AND NONLINEAR NONLOCAL PROBLEMS FOR INTEGER AND FRACTIONAL ORDER DIFFERENTIAL EQUATIONS

01.01.02 – Differential equations and mathematical physics

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT– 2025

The theme of thesis of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number № B2025.2.PhD/FM1288

Dissertation has been prepared at the Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Official opponents:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Yaxshiboyev Maxmadiyor Umirovich Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Docent
Leading organization:	**National University of Uzbekistan**

Defense will take place « 18 » November 2025 at 16:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at the Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky. (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy (is registered № 211). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the dissertation sent out on « 29 » October 2025 year
(Mailing report № 2 on « 29 » October 2025 year)

U.A.Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.M.S., Academician

J.K.Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.M.S., Senior researcher

A.A.Azamov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.M.S., Academician

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the dissertation. Over the past decade, the field of fractional-order differential equations has attracted significant interest among mathematicians worldwide. At present, fractional partial differential equations have become an essential tool for researchers in accurately and reliably modeling a wide range of physical, biological, and chemical processes. In this regard, many scientists are actively engaged in developing new methods for solving fractional-order differential equations and studying new properties of their solutions. More recently, the study of such equations under various types of nonlocal conditions – distinct from classical Cauchy or boundary conditions – has marked a turning point in the field of differential equations. This direction, often referred to as nonlocal problems, has sparked growing interest among both experienced researchers and young scholars. This dissertation covers the study of problems involving the determination of solutions to subdiffusion, diffusion, fractional wave propagation equations, and second-order partial differential equations under various forms of parameter-dependent linear and nonlinear nonlocal conditions. The investigation of such problems is of considerable theoretical and practical importance today. The inclusion of parameters in linear and nonlinear nonlocal conditions provides a general framework that encompasses classical initial and boundary value problems, thereby broadening the applicability of the results. In particular, subdiffusion and diffusion equations are used to describe particle transport in porous media, the diffusion of substances in biological tissues, and the spread of materials within polymers. Fractional-order wave equations, on the other hand, are widely applied in modeling the propagation of electrical signals in cardiac tissue, bioelectrical impulses, vibrations in materials, and stress distribution.

